



**“OLYIY TA’LIM MAZMUNIGA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman  
MATERIALLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIK TA'LIM FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**“OLY TA'LIM MAZMUNIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”  
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman**

**MATERIALLARI**

**2023 yil 27 may**

**BUXORO-2023**

## **UO‘K 37.01**

### **KBK 65ya7 88ya7**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan “2023-yilga mo‘ljallan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar” asosida 2021 yil 27 may kuni Buxoro davlat universitetida “Oliy ta‘lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlar” mavzusida o‘tkazilmoqda. Anjumanning maqsadi - mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta‘lim sifatini oshirish, pedagogik ta‘lim sohasida ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish, pedagogik ta‘lim infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda Respublikada ushbu sohada erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi.

#### **Taqrizchilar:**

M.H.Maxmudov, pedagogika fanlari doktori, professor

B.B.Ma‘murov, pedagogika fanlari doktori, professor

#### **Tahrir hay‘ati:**

Sh.Sh.Olimov, B.R.Adizov, Sh.X.Samiyeva, O.R.Ortiqov. Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Pedagogika kafedrasi dotsenti B.T.Jo‘rayev

1. Xabibova G. G., Raxmanova D. B. Psixologicheskaya slujba v doshkolnyx uchrejdeniyax //Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnye obrazovatelnye i sotsialno-kulturnye texnologii: vektory razvitiya. – 2019. – S. 121-122.

2. Guliya Gaybullayevna Habibova YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYLASHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-harbiy-vatanparvarlik-ruhida-tarbiylashda-sinfdan-tashqari-ishlar>.

3. AZIMOVAN. E., NASIMOVAZ. I. MA'NAVIY-MA'RIFIYISHLARJARAYONIDABO'LAJAKKASBTA'LIMIO'QITUVCHISINI TARBIYALASHMETODIKASI //PSIXOLOGIYA Uchrediteli: Buxarskiygosudarstvennyyuniversitet. – №. 3. – S. 129-134.

4. Azimova N. E. Formation of National and Ideological Education of Students is an Integral Part of the Learning Process. – 2021.

5. Azimova N. E. A FINANCIALLY INDEPENDENT HIGHER EDUCATION INSTITUTION IS THE FOUNDATION OF OUR FUTURE //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – S. 130-134.

## **ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOIIY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Usmanova Manzura Naimovna**

**Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti,  
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti**

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash har narsadan ustunligi davlatning asosiy ko'zlangan masalalaridan biridir. Tezkor zamon talabidan kelib chiqib, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yangicha fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilishini kechiktirib bo'lmas vazifa etib belgiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida munosib o'rinni egallab, dadil qadamlar bilan ilgari borar ekan, shubhasiz shu mustaqillikni va uning porloq istiqbolini ta'minlovchi omillarning ahamiyati tobora ortib boraveradi.

«Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Bu omilning kuchi va ta'siri, eng avvalo, yuksak ma'naviyat bilan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi».

Insonning ruhiy, manaviy takomilida bilim olishning ahamiyati naqadar beqiyosligini anglash davri keldi. Chunki bugungi globallashuv jarayonida dunyoning ishini aql va farosat bilan boshqarishga to'g'ri keladi. Gap tayyorlanayotgan mutaxassislarning ruhiy, kasbiy, amaliy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida bormoqda. Hozirgi davrda yuksak qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan talab kun sayin ortib bormoqda. Modomiki, shunday ekan, alohida olingan iste'dodli shaxslardagina emas, balki barcha mehnatkashlarning ijodiy imkoniyatlarini iloji boricha ko'proq rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda inson va uning intellektual salohiyatiga aloqador fanlarning roli ortib borishi har bir inson shaxsida mavjud yashiringan tarzdagi imkoniyatlardan foydalanish, ularni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish ehtiyoji namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, kelajak avlodni o'zining sog'lom va mustaqil fikriga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunda ko'ndalang qo'yilgan asosiy vazifalardan biriga aylangan.

Bugungi kunda psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxs xususiyatlarini iloji boricha to'liq va mukammal o'rganib chiqishdir.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi.

Olmon psixologi E.Meyerman bolaning maktab davrida uning ruhi va tanasida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq yoki tazyiq o'tkazib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha eksperimental psixologiyaning maqsadi ayni shu muammolarga qaratilmog'i darkor.

Amerikalik psixolog-olim S.Xoll "har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogenezda takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur" -deb aytadi. S.Xoll o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab, bola haqida psixologik, fiziologik hamda pedagogik bilimlarning kompleks dasturini yaratish g'oyasini olg'a suradi.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym “ulg’ayish - kishilarning his-tuyg’ularni o’zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an’ana, urf-odatlarini taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo’lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o’rin tutishini uqtiradi,

Amerikalik psixolog Dj.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta’lim o’rtasida o’zaro aloqa mavjudligini ta’kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o’qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi, deb uqtiradi.

D.B.Elkonin yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratishni lozim topadi:

1. Go’daklik davri - tug’ilgandan 1 yoshgacha - yetakchi faoliyat bevosita emotsional muloqot;

2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - yetakchi faoliyat predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o’yinlar;

4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o’qish;

5. Kichik o’smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;

6. Katta o’smirlik yoki ilk o’spirinlik davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - yetakchi faoliyat - o’qish, kasb tanlash davri

D.B.Elkoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim o’rin tutadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili A.V.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta’kidlaydi:

1. Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oldingi davr) tugilganidan 3 yoshgacha.

2. Bog’cha davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha.

4. O’rta maktab yoshi (o’smirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha.

5. Yuqori sinf o’quvchisi (ilk o’spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

AV.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo’lsada, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Vaholanki, o’sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo’lishidan qat’iy nazar, har ikkala yo’nalishning ham oraliq jabhalari bo’lishi ehtimoldan holi emas.

Kichik maktab yoshi davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola maktab o'quvchilariga qo'yiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror buladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola uz atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga utadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda o'smirlarning aksariyat qismida sotsiofobiya kuzatilib, bu holat ularning o'z-o'ziga beradigan baholari hamda individual psixologik xususiyatlari bilan ham bog'liq degan fikrga kelish mumkin.

Ushbu muammoni hal etish uchun o'z vaqtida psixoprofilaktik, rehabilitatsion va psixokorreksion ishlar olib borilmasa, sotsiofobiya o'smirlik davridan so'ng ham yanada avj olib, o'z fikrini erkin bayon eta olmaslik, o'ziga ishonchsizlik, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'liq namoyon eta olmaslik holatlarini vujudga keltiradi. Natijada insonda sekin-asta xavotirlik va hadiksirash tuyg'ulari kuchayib,

## МУНДАРИЖА

<b>О.Х.Хамидов.</b> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING MUHIM OMILI.....	4
<b>1-SHO'BA.</b> OLIY TA'LIMNING IJTIMOY-FALSAFIY VA ANTROPOLOGIK ASOSLARI.....	6
<b>Sh.Sh.Olimov.</b> OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	6
<b>B.R.Adizov.</b> O'QITUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLAR.....	7
<b>B.Q. Xodjayev.</b> OLIY TA'LIM O'QITUVCHISI PEDAGOGIK MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHLTLARI.....	9
<b>N.N. Musayeva.</b> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДУЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ.....	13
<b>N.E. Azimova.</b> MOLIYAVIY MUSTAQIL OLIY TA'LIM MUASSASASI KELAJAGIMIZ POYDEVORIDIR.....	17
<b>B.U. Jo'rayev.</b> TALABALARNI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	21
<b>Sh.X. Samiyeva, M.E. Saidova.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK MUTAXASSISLAR KREATIV QOBILIYATINI TARBIYALASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	25
<b>H.K. Homidov.</b> TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAMOAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	29
<b>G'H. Jumaqulov.</b> IQTIDORLI O'QUVCHILAR INTELLEKTUAL SIFATLARINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	34
<b>2-SHO'BA.</b> OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI .....	37
<b>M.A. Jumayeva.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	37
<b>N.X. Aslanova.</b> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI.....	41
<b>Yu.A. Boynazarova.</b> "OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI" TA'LIM YO'NALISHI FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV METODIKASINI TASHKIL ETISH.....	43
<b>A. Bozorova, G.I. Sayfullayeva</b> OLIY TA'LIM TIZIMIDA ASTRONOMIYA MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH.....	45



<b>M.O.Ochilova, M.M. Abdullayeva</b> TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI INNOVATSIYALASH MASALALARI.....	48
<b>G'O.Boqiyev.</b> IXTISOSLIK FANLARINI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	51
<b>D.Haydarova.</b> PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA ASTRONOMIYADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI INNOVATSION O'QITISH.....	53
<b>G.I. Sayfullayeva, S.Q. Qaxxorov.</b> ASTRONOMIYA O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.....	56
<b>N.X. Qobilova.</b> FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	58
<b>Z.X. Qulboyev.</b> FIZIKANING "TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR" BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR.....	61
<b>N.A. Raximova.</b> MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI.....	65
<b>M.X. Toshev.</b> SHAXMATNI O'RGATISHDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI.....	68
<b>Sh.A. Sharapova.</b> ТЕХНОЛОГИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.....	72
<b>B.G. Nurullayev.</b> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	75
<b>F.G.Nurullayev.</b> "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	78
<b>3-ShO'BA. MILLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....</b>	<b>81</b>
<b>N.E. Azimova, A. Ergasheva.</b> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI.....	81
<b>A.T. Gulboyev.</b> OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INOVATSION YO'LLARI.....	86
<b>Sh.M.Farmonova.</b> O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH.....	90
<b>I.U. Ismatov, S.Q.Sadullayeva.</b> TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	95
<b>F.X.Ramazonova.</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA E'TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.....	98
<b>Z.M. Amirqulova.</b> HIKOYALARDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING IFODALANISHI.....	102

<b>M.B. Qambarov.</b> BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.....	105
<b>F.F. Narzulloyeva.</b> YOSHLARDA IJOD VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM YO'NALISHLARI.....	107
<b>M.Yo.Umarova.</b> XALQ QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....	109
<b>M.Yo.Umarova. F.F. Raximova.</b> TASAVVUF TA'LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI.....	133
<b>B.B. Xodjiyev.</b> OLIY TA'LIM O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK NAZOKATI VA AXLOQINING IJODIY KO'RINISHI.....	118
<b>A.T. Gulboyev.</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKAVIY AMALIYOTLARNI O'TKAZISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	121
<b>H.R. Hasanov, A.B. Barotboyev</b> MUSIQA DARSLARIDA O'ZBEK XALQINING MUSIQIY MEROSIDAN FAYDALANISH.....	124
<b>M.N. Amonov.</b> TALABALARNI IJTIMOYIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	126
<b>Q.F. Abdullayev.</b> ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ПРЕДКОВ.....	128
<b>4-ShO'BA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH MEXANIZIMLARI.....</b>	<b>132</b>
<b>M.O. Ochilova.</b> OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	132
<b>G.G. Xabibova.</b> TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHGA TEXNOLOGIK YONDASHUV VA UNI LOYIHALASH.....	134
<b>G.G. Xabibova, M.E. Mirzayeva.</b> TALABA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ODATLARINI TARBIYALASH VAZIFALARI.....	139
<b>M.N. Usmanova.</b> ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDA IJTIMOYIY FOBIYA KO'RINISHLARINING NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	142
<b>N.F. Mexmonova.</b> YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	146
<b>Yu.Z. Saidova.</b> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR.....	148
<b>Sh.K.O'rinov.</b> MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI VA USULLARI.....	150
<b>O.R. Ortiqov.</b> MA'NAVIY ISLOHOTLAR OLIY TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TARBIYALASH MANBAI.....	154

<b>Sh.U. Ismatov.</b> OLIY TA'LIM TALABALARINING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRINSHGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALAB...	156
<b>H.B. Ismatova.</b> OLIY TA'LIM TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	164
<b>M.SH.Xojiyeva.</b> QADRIYAT G'OYASI VA UNING UMUMIY AKSILOGIYADAGI RIVOJI.....	166
<b>B.T. Hamrayev.</b> MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA JISMONIY TARBIYA.....	169
<b>S. Yaxyaeva.</b> GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURLIGI XUSUSIDA.....	171
<b>Sh.R. Alimova.</b> TALABALARNING MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI.....	174
<b>A.A. Odilov.</b> PROFESSIONAL TA'LIMDA SIFATNI TASHQI TA'MINLASH: ASOSIY MANFAATDOR TOMONLAR SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH EHTIYOJLARINI BAHOLASH.....	177